



Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna,
«Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

JAMIYATDA VA OILADA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING ROLI

Annotatsiya. Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xalqaro tajribalar va standartlar asosida ularning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda tajribalarni tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar: xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshirish bo'yicha farmonlar, xalqaro standartlar, gender tengsizligi indeksi, gender rivojlanish indeksi.

Аннотация. Сегодня важно проанализировать опыт повышения общественно-политической активности женщин Узбекистана на основе международного опыта и стандартов, и выработать необходимые предложения и рекомендации.

Ключевые слова: указы, посвященные повышению общественно-политической активности женщин, международные стандарты, индекс гендерного неравенства, индекс гендерного развития.

Annotation. Today it is important to analyze the experience of increasing the socio-political activity of women in Uzbekistan on the basis of international experience and standards, and to develop the necessary proposals and recommendations.

Keywords: decrees on increasing the socio-political activity of women, international standards, gender inequality index, gender development index.

Kirish. Mamlakatimizda xotin-qizlarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta'minlashning huquqiy kafolatlarini yaratish, siyosiy faolliklarini oshirib, ularni rahbarlik lavozimlariga ko'tarish, nodavlat va xalqaro tashkilotlardagi faoliyatini kengaytirishga katta e'tibor berilmoqda. XX asr xotin-qizlarning o'z huquq va erkinliklari, siyosiy imkoniyatlari va mas'uliyatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan davr bo'ldi. Xotin-qizlar minglab yillar davomida umuman ko'rmagan va guvohi bo'lmagan, orzu intilishlarining mazmun-mohiyatiga aylangan siyosiy huquqlarga aynan shu asrda erishdilar. Ushbu asrda xotin-qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o'zgargani va endi nafaqat oilaviy hayot, balki davlat va jamiyat hayotida ayollar va erkaklarning maqomi

ham tenglashgani diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni e'lon qilindi. Farmonga muvofiq, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini hamda onalik va bolalikni har tomonlama himoyalashini ta'minlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning o'quv

jarayoni samaradorligini oshirish sohasida olib borayotgan ishlari tahsinga sazovordir. Bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy ko'zgusi bu xotin-qizlar ekanligi shubhasiz. Chunki jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyati, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat, boringki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlari hamda shu jamiyat taraqqiyoti xotin-qizlarning o'sha jamiyatda tutgan o'rni hamda ularga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Xalqimiz orasida "Ayol bir qo'li bilan beshikni, ikkinchi qo'li bilan dunyoni tebratadi", degan naql bejiz vujudga kelmagan. Buyuk ajdodlarimiz, millatimiz tarixidan ma'lumki, o'zbek ayollari nafaqat o'z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mashhur hukmdor va davlat arbobi – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalar, Bahouddin Naqshband, Abdulxoliq G'ijduvoni, hazrat Xo'ja Ahror Vali kabi aziz avliyolar, jahonni lol qoldirgan olimlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek hamda yetuk shoir va adiblar – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Umar Hayyom, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Oybek singari insonlar bilan mashhurdirlar. Mag'rur, jasur va dono To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysylarning nomlari nafaqat biz uchun, balki ilg'or fikrli dunyo ahli uchun ham ulug' ekanini hammamiz yaxshi bilamiz¹.

Asosiy qism. Bugungi kunda ayollarimiz ishlab chiqarish, tadbirkorlik, hunarmandchilik, ilm-fan, san'at va sport kabi sohalarda muvaffaqiyatlarga erishmoqda, xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlarida, ta'lim muassasalarida rahbarlik qilmoqda. Mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat hokimiyati organlarida 321 nafar, 30 414 nafar ayol esa tarmoqlar bo'yicha rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 15 nafari senator, 21 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatlari va Xalq deputatlari tuman/shahar Kengashlarida 1516 nafar ayol deputatlarimiz faoliyat yuritmoqda. Jahondagi boshqa davlatlar parlamentida ayollar ulushini taqqoslasak, Isroil davlati parlamentida ayollar 27,5%, Shvetsiyada 43,6%, Finlyandiyada 42%, Norvegiyada 41,4%, Islandiyada 38,1% ni tashkil etmoqda. Davlat qonunlarining qabul qilinishida ishtirok etish, unda xotin-qizlarlar masalasini qo'ya bilish va manfaatini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlardan aniqlanmoqdaki, xotin-qizlar masalasi o'z-o'zidan hal bo'lmaydi, buning uchun izchil davlat siyosati, uning aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, eng muhimi, xotin-qizlarning faolligi zarur². Albatta, jamiyatimizda, oilada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xalqaro standartlarning roli beqiyos sanaladi, shu sababli biz xalqaro tajribalardan rahbar ayollarimizga o'zimizning milliy qadriyatlarimizga mos jihatlarni olib foydalansak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xalqaro standartlar va xalqaro organlarning (masalan, BMTning inson huquqlari bo'yicha organlari) tavsiyalarini hisobga olgan holda takomillashtirilmoqda. Buni inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik misolida yaqqol ko'rish mumkin. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishda O'zbekiston BMTning Inson huquqlari to'g'risidagi shartnomaviy organlarining tavsiyalarini inobatga oladi. O'zbekiston inson huquqlariga oid 80 dan ziyod xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilgan. O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlariga 6 ta asosiy shartnoma bo'yicha davriy milliy hisobotni taqdim etadi. Hisobotlar ko'rib chiqilgach, ushbu organlar inson huquqlari bo'yicha milliy siyosatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakuniy kuzatuvlarni taqdim etadilar. Bundan tashqari, bugungi kunda *jahon indeksleri* va O'zbekistonning jahon indekslaridagi mavqeyini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat siyosatini takomillashtirishda jahon indekslarida ko'rsatilgan *indikatorlar* ham hisobga olinadi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reyting hamda indekslar bo'yicha dunyoning eng ilg'or 50 mamlakatiga kirishini nazarda tutadi (gender tengligi, qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi

¹ "Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш — мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2019 йил 26 февраль). — Тошкент: ТДИУ, 2019. — 491 бет.

² Ўша мақола 82-бет

sifati, hukumat faoliyatining samaradorligi, soʻz va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish, biznes uchun sharoitlar, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar). Inson huquqlari toʻgʻrisidagi qonunchilikni takomillashtirish choralari BMTning Inson huquqlari boʻyicha organlarining yakuniy eʼtirozlari va tavsiyalarini inobatga olgan holda koʻriladi. Bunda xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribalariga alohida eʼtibor qaratiladi. Bu hozirgi davrda qonunchilikni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari va zarur shartlaridan biridir. Shuningdek, Oʻzbekiston jahon indeksleri koʻrsatkichlarini inobatga oladi (masalan, Global gender index va hokazo). Zero, Oʻzbekiston oldida turgan vazifalardan biri – bu mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash. Mamlakatimizda faol gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini mustahkamlash boʻyicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75 yillik yubiley sessiyasida taʼkidlaganidek, “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi oʻrni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga koʻpaydi”³.

Xalqaro huquqiy standartlar. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti taʼrifiga koʻra, **indikator** – bu yutuqlarni oʻlchash yoki biron-bir harakat natijasida sodir boʻlgan oʻzgarishlarni aks ettirishning oddiy va ishonchli vositasi yoki rivojlanish subyektiining ishini baholash vositasi boʻlgan miqdoriy yoki sifat omili yoxud oʻzgaruvchisidir. Boshqacha qilib aytganda, indikator – bu murakkab voqelikni tushunishga va oʻrganilayotgan hodisani miqdoriy jihatdan ifodalashga imkon beradigan qayta ishlanmagan yoki ishlangan maʼlumotlar yigʻindisi. Indikator asosiy maʼlumotning oʻzi emas, balki muayyan hodisani tavsiflash yoki baholash uchun ushbu asosiy maʼlumotlardan foydalanishdir.

Gender tengsizligi indeksi. Foydalaniladigan oʻlchovlar: sogʻliq, huquq va imkoniyatlarni kengaytirish, mehnat bozori. Har bir oʻlchov boʻyicha indikatorlar:

1. Sogʻliq – onalar oʻlimi indeksi va oʻsmirlarning tugʻish indeksi.

2. Huquq va imkoniyatlarni kengaytirish – kamida oʻrta maʼlumotga ega boʻlgan ayol va

erkak aholi; erkaklar va ayollarning Parlamentda egallagan oʻrinlar ulushi.

3. Mehnat bozori – ayol va erkak aholining iqtisodiy faolligi koʻrsatkichlari. Bunda oʻlchov indekslariga ushbu kiradi: xotin-qizlarning reproduktiv salomatligi indeksi (onalar oʻlimi indeksi va oʻsmirlarning tugʻish indeksi yigʻindisi); xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish indeksi (kamida oʻrta maʼlumotga ega boʻlgan ayol va erkak aholi koʻrsatkichlari hamda erkaklar va ayollarning Parlamentda egallagan joylar ulushining yigʻindisi); xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi indeksi ayol va erkak aholining iqtisodiy faolligi koʻrsatkichi bilan bogʻliq (yuqoridagi uchta indeksning yigʻindisi xotin-qizlarning gender indeksini tashkil qiladi); erkaklar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish indeksi (kamida oʻrta maʼlumotga ega boʻlgan ayol va erkak aholi koʻrsatkichlari hamda erkaklar va ayollarning Parlamentda egallagan joylar ulushining yigʻindisi); erkaklarning iqtisodiy faolligi indeksi ayol va erkak aholining iqtisodiy faolligi koʻrsatkichi bilan bogʻliq (yuqorida keltirib oʻtilgan ikkita indeksning yigʻindisi erkaklar gender indeksidir). Xotin-qizlar gender indeksi va erkaklar gender indeksini qoʻshgan holda Gender tengsizligi indeksini hosil qilish mumkin.

Xalqaro genderga sezuvchan koʻrsatkichlar.

Soʻnggi paytlarda **Jahon banki (JB)** loyiha darajalari va yoʻnalishlari (boʻlimlari) boʻyicha **Mehnatning asosiy indikatorlarini** qoʻllash uchun imkoniyatlarni kengaytirish muammosini oʻrganish bilan monitoring va baholash jarayonlarining ajralmas qismi sifatida shugʻullaniladi. JB (“Keyingi qadamlar” indikator dasturining bir qismi sifatida) boʻlimlar uchun indikatorlarning rivojlangan seriyasiga ega, jumladan, aholi, taʼlim, qishloq xoʻjaligi, kambagʻallik va turarjoy sohalaridagi indikatorlar, ularning ayrimlari gender sezuvchan hisoblanadi.

USAID Strategik menejment uchun tezkor (ishchi) axborot dasturiga (PRISM) muvofiq gender sezuvchan indikatorlarni qoʻllash metodologiyasini ishlab chiqdi va unga baʼzi misollarni kiritdi (USAID, 1994). Biroq yondashuv taxminiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, unda indikatorlar tipologiyasida maʼlum bir qarama-qarshilik kuzatilib, sifat koʻrsatkichlari eʼtibordan chetda qolgan.

Britaniya ODAsi (British ODA, 1993 a, b) Xotin-qizlar rivojlanishi dasturi maqsadlariga loyihaning muvofiqlik darajasini baholash boʻyicha

³ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>

DAC talablariga asoslangan oddiy hisoblash tizimini qo'llagan holda loyiha maqsadlarini baholash uchun Axborot siyosati mezonlari tizimini gender yondashuvni hisobga olib ishlab chiqadi. **GTZ** ("Loyihani maqsadli rejalashtirish" – nemis tilidagi abbreviatura) shu orada ZOPPni yaratadi va u siyosiy faollikni rivojlantirish bo'yicha ba'zi indikatorlarni o'z ichiga oldi (Jahon banki, 1994 a).

BMTTD – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi gender rivojlanish indeksini mamlakat darajasida kiritish maqsadida o'z faoliyatini Inson taraqqiyoti indeksigacha kengaytirdi. Mamlakat indeksining darajasi gender o'zini o'zi rivojlantirishga ko'maklashish o'lchovini aniqlab berdi (BMTTD, 1995).

Gender rivojlanish indeksi ayollar va erkaklarning hayotdan umidlarini, ta'lim va daromadlardagi yutuqlarini taqqoslaydi. Gender o'zini o'zi rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar daromadlardagi gender farqlarga, kasbiy, texnik, ma'muriy va boshqaruv lavozimlari sifatida malakalanadigan bo'sh ish o'rinlariga kirish hamda Parlamentda ayollar va erkaklar egallagan joylar nisbatiga tayanadi.

Ayol, tinchlik va xavfsizlik indeksi – PRIO Gender masalalari, tinchlik va xavfsizlik markazi hamda Jorjtaun ayollar, tinchlik va xavfsizlik instituti tomonidan 2017-yilda ishlab chiqilgan. Ushbu indeks avtonomiyani hamda xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarining uy xo'jaligi hamda jamiyatda kengaytirilishi aks etadi. "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" – bu xotin-qizlar xavfsizligiga alohida e'tibor qaratilgan *birinchi gender indeksidir*. Bunda uchta jihat birlashtirilgan: *inklyuzivlik, adolat va xavfsizlik*. Indeks ayollarning farovonligi va tengligini ta'lim yillari, bandlik darajasi, moliyaviy imkoniyatlar, gender zo'ravonligi va boshqa shu kabi 11 ta ko'rsatkich asosida baholaydi. Mamlakatlar 0 dan 12 gacha ball oladi. Qizig'i shundaki, ushbu indeks xotin-qizlarning mavqeyi va yutuqlarini erkaklar bilan taqqoslamasdan aks ettiradi, ya'ni mamlakatlar ayollar va erkaklar o'rtasidagi tafovutga qarab emas, balki aholining ayollar qismi uchun mavjud integratsiya, adolat va xavfsizlikning umumiy ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Indeks 2017-yilda yaratilganidan beri bugungi kunga qadar ro'yxatdagi 90 ta mamlakat o'z faoliyatini 5% ga yaxshilagan, bunda bu mamlakatlarning 10 tasidan 6 tasi Afrika qit'asida Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda ayollarni

oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik o'zgargan va 81 ta mamlakatda jamoat xavfsizligi muhimligi to'g'risida kengroq tushuncha shakllangan⁴. Indeks turli xil manfaatdor tomonlar uchun COVID-19 pandemiyasini yengib o'tgandan keyin kelajakni qayta ko'rib chiqishda hamda "yaxshi va yomon paytlarda barqaror bo'lgan adolatli tizimlarni yaratishda" muhim manba hisoblanadi.

Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari bo'yicha iqtisodiy komissiya (ECLAC) 12 strategik yo'nalishlarning har biri bo'yicha aniq belgilangan gender indikatorlari, shuningdek, ma'lumotlarni yig'ish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan buklet chiqardi. Unda jami 60 dan ortiq miqdoriy ko'rsatkich taklif etilgan. ECLAC Pekin harakatlar platformasining bajarilishi yuzasidan ayollarning imkoniyatlarini monitoring qilish va baholash strategiyalari bo'yicha mintaqaviy konferensiyasi uchun hujjat tayyorladi. Ushbu hujjat, birinchi navbatda, davlat siyosatini monitoring qilish hamda baholash uchun 100 dan ortiq indikatorlarni, shuningdek, ayollar ishtirokini oshirishni kuzatish va baholash uchun ma'lumotlardan qanday foydalanish mumkinligi to'g'risida ayollar NNTlariga tavsiyalarni taklif qiladi. Unda uch turga bo'lingan gender indikatorlari – badallar, jarayonlar (yoki amalga oshirish) hamda natijalar indikatorlariga misollar keltiriladi. Bunga ba'zi sifat ko'rsatkichlari (masalan, qochqinlar va boshqa ko'chirilgan ayollarning huquqlari to'g'risida jamoatchilik xabardorligini oshirish) hamda alohida psixologik indikatorlar to'plami kiradi.

Ikkinchi to'plam BMTning Rivojlanishga ko'maklashish asoslari ishtirokchi mamlakatlarining namunaviy baholash hamda BMTning xalqaro konferensiyalari qarorlarining bajarilishini kuzatish uchun 40 ta indikator mavjud. Ushbu ko'rsatkichlar daromad, kambag'allik, ovqatlanish va oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik, sog'liqni saqlash va o'lim, reproduktiv salomatlik, bolalar salomatligi muhofazasi va ijtimoiy sug'urta, ta'lim, gender tenglik va xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, bandlik va yashash uchun barqaror

⁴ Индекс «Женщины, мир и безопасность» / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://internationalwealth.info/news-of-the-offshore/indexzhenshhiny-mir-i-bezopasnost-wps-v-kakoj-strane-zhenshhiny-chuvstvujut-sebjabezopasnej-vsego/>. – Дата доступа: 20.03.2022

daromad, uy-joy va asosiy maishiy qulayliklar, atrof-muhit hamda giyohvand moddalarni nazorat qilish va jinoyatchilikning oldini olish kabi sohalarni qamrab oladi. Ushbu to'plam gender tenglikka erishish hamda siyosiy, iqtisodiy va ta'lim sohasida ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha yutuqlarni o'lchash imkonini beradi. Biroq ba'zi indikatorlarning kamchiliklariga ham to'xtalib o'tish lozim. Jumladan, ta'lim sohasidagi ma'lumotlar qancha talaba mashg'ulotlarga qatnashishini emas, balki qanchasi ro'yxatga olinganini ko'rsatadi; ko'rsatkichlar qizlar va o'g'il bolalar tomonidan egallanadigan ta'lim gender tengsizligini mustahkamlaydigan gender stereotiplaridan qanchalik xoli ekanligi haqida ma'lumot bermaydi; yosh avlodning ta'lim muassasasini tugatganidan so'ng malaka darajasi to'g'risidagi ma'lumotini taqdim qilmaydi⁵.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat va oilada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xalqaro standartlarning rolini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirmoq zarur:

⁵ Цели и индикаторы: выдержки из отчета «Прогресс женщин мира» UNIFEM. Акыл китабы, 2000. – 36 б.

– xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda xotin-qizlarning faolligini takomillashtirib borish zamon talabi sifatida qarash;

– jamiyatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarning og'irini yengil qilish maqsadida olib borilayotgan adolatli siyosatda faol ishtirok etishda ayollarning o'zni dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblash;

– xotin-qizlarning davlat boshqaruv strukturalaridagi rolini oshirish hamda xotin-qizlarning siyosiy, qonunchilik va ijrochilik jarayonlarida qarorlar qabul qilish darajasida keng qatnashuvini ta'minlash;

– xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun jamoat va davlat tashkilotlarini jipslashtirish;

– xotin-qizlarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida mahalla miqyosida ishlash uchun xotin-qizlarimizni jalb etish va hokazo.

Jamiyatda, oilada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xalqaro standartlarning rolini oshirish muhim omil hisoblanadi. Oilada ayollarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi qanchalik oshib borsa, farzandarimiz tarbiyasi shunchalik mukammal va salohiyatli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги № ПФ-5325-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сон [Фармони](#).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон [Фармони](#).
4. Базарова Д. “Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – давр талаби”. ТДЮУ. – Тошкент, 2019.
5. Абдурауф Фитрат “Оила ёки оила бошқариш тартиблари”, Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Тошкент, 2019.
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари, 2019 // www.stat.uz
7. “Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2019 йил 26 февраль). – Тошкент: ТДИУ, 2019. – 491 бет.
8. Цели и индикаторы: выдержки из отчета «Прогресс женщин мира» UNIFEM. Акыл китабы, 2000. – 36 б.
9. Индекс «Женщины, мир и безопасность» / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://internationalwealth.info/news-of-the-offshore/indexzhenshhiny-mir-i-bezopasnost-wps-v-kakoj-strane-zhenshhiny-chuvstvujut-sebjabezopasnej-vsego/> – Дата доступа: 20.03.2022
10. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>